

TIBBIY INGLIZ TILINI O'QITISHDA KLINIK VAZIYATLARGA ASOSLANGAN TOPSHIRIQLARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЗАДАНИЙ НА ОСНОВЕ КЛИНИЧЕСКИХ СИТУАЦИЙ В ОБУЧЕНИИ МЕДИЦИНСКОМУ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

DIDACTIC POTENTIAL OF CLINICAL CASE-BASED TASKS IN TEACHING MEDICAL ENGLISH

OLIMOVA SHARIFABONU SIDDIQOVNA

Buxoro davlat tibbiyot instituti "O'zbek tili va adabiyoti, rus va ingliz tili"
kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida tibbiy ingliz tilini o'qitishda klinik vaziyatlarga asoslangan topshiriqlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy tibbiy ta'lim sharoitida bo'lajak shifokorlardan nafaqat xorijiy tilni bilish, balki uni kasbiy faoliyatda samarali qo'llash ham talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, klinik vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar talabalarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, tibbiy terminologiyani faol qo'llash, klinik fikrlashni shakllantirish hamda real kasbiy muloqotga tayyorlashda muhim didaktik vosita hisoblanadi. Maqolada mazkur topshiriqlarning ta'lim jarayonidagi afzalliklari, ularni loyihalash tamoyillari va amaliy qo'llash imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: tibbiy ingliz tili, klinik vaziyat, case-based learning, kommunikativ kompetensiya, kasbiy kompetensiya, autentik materiallar, didaktik yondashuv, tibbiy ta'lim.

Аннотация. В данной статье анализируются дидактические возможности использования заданий, основанных на клинических ситуациях, при обучении медицинскому английскому языку в высших медицинских образовательных учреждениях. В условиях современного медицинского образования от будущих врачей требуется не только владение иностранным языком, но и умение эффективно использовать его в профессиональной деятельности. В этой связи задания, основанные на клинических ситуациях, рассматриваются как важное дидактическое средство, способствующее развитию профессионально-коммуникативной компетенции студентов, активному использованию медицинской терминологии, формированию клинического мышления и подготовке к реальному профессиональному общению. В статье освещаются преимущества данных заданий в образовательном процессе, принципы их проектирования и возможности практического применения.

Ключевые слова: медицинский английский язык, клиническая ситуация, обучение на основе клинических случаев (Case-Based Learning), коммуникативная компетенция, профессиональная компетенция, аутентичные материалы, дидактический подход, медицинское образование.

Abstract. This article examines the didactic potential of using clinical scenario-based tasks in teaching Medical English at higher medical education institutions. In the context of contemporary medical education, future physicians are expected not only to possess proficiency in a foreign language but also to apply it effectively in their professional practice. From this perspective, clinical scenario-based tasks serve as an effective didactic tool for developing students' professional communicative competence, promoting the active use of medical terminology, fostering clinical reasoning skills, and preparing learners for authentic professional communication. The article discusses the educational advantages of these tasks, the principles of their design, and the possibilities for their practical implementation in the teaching and learning process.

Keywords: Medical English, clinical scenarios, Case-Based Learning (CBL), communicative competence, professional competence, authentic materials, didactic approach, medical education.

KIRISH. Oliy tibbiy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bo'lajak shifokorlarni xalqaro kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Tibbiyot sohasida ilmiy axborotlarning katta qismi ingliz tilida e'lon qilinishi, xalqaro klinik tavsiyalar, ilmiy maqolalar, davolash protokollari va zamonaviy tadqiqotlarning asosan ingliz tilida chop etilishi tibbiy ingliz tilini egallashni kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismiga aylantirmoqda.

So'nggi yillarda chet tilini kasbiy maqsadlarda o'qitish metodikasida klinik vaziyatlarga asoslangan ta'lim (Case-Based Learning) samarali pedagogik yondashuvlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur yondashuv talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish va kasbiy qaror qabul qilish malakasini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tibbiy ingliz tili mashg'ulotlarida bemor bilan suhbat, anamnez yig'ish, tashxisni muhokama qilish, davolash rejasini tushuntirish hamda hamkasblar bilan professional muloqot kabi vaziyatlarni modellastirish til o'rganishni mazmunli va amaliy yo'naltirilgan jarayonga aylantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Tibbiy ingliz tilini o'qitish metodikasi so'nggi yillarda xorijiy tilni kasbiy maqsadlarda o'qitish (English for Specific Purposes – ESP) yo'nalishining muhim tarkibiy qismiga aylandi. [1:13] Mazkur yo'nalishning asosiy maqsadi talabalarda umumiy til ko'nikmalarini emas, balki kelgusidagi kasbiy faoliyatda zarur bo'ladigan kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdan iborat. Shu sababli tibbiy ingliz tili mashg'ulotlarining mazmuni real klinik faoliyat bilan uzviy bog'langan bo'lishi lozim.

Pedagogik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, kasbiy kompetensiyani rivojlantirish talabaning nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyati bilan

belgilanadi. Tibbiyot ta'limida bu jarayon bemor bilan muloqot qilish, anamnez yig'ish, tashxisni muhokama etish, laborator tekshiruv natijalarini sharhlash, davolash rejasini tushuntirish hamda hamkasblar bilan professional muloqotni amalga oshirish kabi faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Mazkur kompetensiyalarni faqat grammatik mashqlar yoki alohida terminlarni yodlash orqali rivojlantirish mumkin emas. Buning uchun talabaning real kasbiy vaziyatga yaqinlashtirilgan o'quv faoliyatida ishtirok etishi zarur.

Aynan shu nuqtai nazardan klinik vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar alohida didaktik ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvda o'quv materialini sun'iy tuzilgan dialoglar asosida emas, balki shifokorlik amaliyotida uchrashi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlar asosida tashkil etiladi. Talaba berilgan klinik holatni tahlil qiladi, tibbiy terminologiyadan foydalangan holda muloqot olib boradi, ehtimoliy tashxislarni muhokama qiladi, qo'shimcha tekshiruvlarni tavsiya etadi hamda bemorga zarur tavsiyalarni ingliz tilida ifodalaydi. Natijada til o'rganish jarayoni kasbiy tafakkur bilan uyg'unlashadi.

Klinik vaziyatlardan foydalanish konstruktivistik ta'lim nazariyasiga tamoyillariga ham mos keladi. Mazkur yondashuvga ko'ra, bilim tayyor shaklda o'zlashtirilmaydi, balki talabaning faol bilish jarayonida shakllanadi. O'quvchi muammoni mustaqil tahlil qiladi, mavjud bilimlarini yangi vaziyatga tatbiq etadi, guruhdoshlar bilan fikr almashadi va xulosaga keladi. Shu jihatdan klinik topshiriqlar nafaqat lingvistik, balki tahliliy, tanqidiy va klinik fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. [2:25]

Tibbiy ingliz tili mashg'ulotlarida klinik vaziyatlardan foydalanishning yana bir afzalligi autentiklik tamoyilining ta'minlanishidir. Zamonaviy metodikada autentik materiallar talabaning kelgusidagi kasbiy faoliyatiga yaqin bo'lgan o'quv

resurslari sifatida baholanadi. Shifokor va bemor o'rtasidagi dialoglar, kasallik tarixlari, laboratoriya xulosalari, klinik tavsiyalar, tibbiy maqolalar hamda videokonsultatsiyalar asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar talabalarni real kasbiy kommunikatsiyaga tayyorlash imkonini beradi.[3:99]

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, klinik vaziyatlarga asoslangan mashg'ulotlarda talabalarning darsdagi faolligi ortadi. Ular tayyorjavobni takrorlashdan ko'ra muammoni hal etishga intiladilar, kasbiy terminlardan faol foydalanadilar, o'z fikrlarini asoslashga harakat qiladilar hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Natijada o'quv jarayoni talaba markazli tus oladi va o'qituvchi ko'proq yo'naltiruvchi hamda fasilitator vazifasini bajaradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur tadqiqot tibbiy ingliz tilini o'qitish jarayonida klinik vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarning didaktik imkoniyatlarini aniqlash hamda ularning bo'lajak shifokorlarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sirini nazariy va metodik jihatdan asoslashga qaratilgan.

Tadqiqot jarayonida pedagogik tadqiqotlarning umumilmiy va maxsus metodlaridan kompleks foydalanildi. Jumladan, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, kuzatish, pedagogik umumlashtirish hamda metodik tahlil usullari qo'llanildi. Mazkur metodlar orqali tibbiy ingliz tilini o'qitish metodikasiga oid ilmiy qarashlar o'rganildi, klinik vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarning mazmuni va didaktik xususiyatlari tahlil qilindi hamda ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlari baholandi.

Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, kommunikativ, faoliyatga yo'naltirilgan hamda kasbiy yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlari tashkil etdi. Kompetensiyaviy yondashuv talabalarda

kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni yaxlit holda rivojlantirishni nazarda tutsa, kommunikativ yondashuv tibbiy ingliz tilidan real muloqot jarayonida samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv esa talabalarni muammoli vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish, klinik qarorlarni muhokama etish va kasbiy muloqotda faol ishtirok etishga undaydi. [4:56]

Tadqiqot davomida klinik vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar didaktik jihatdan quyidagi mezonlar asosida tahlil qilindi: topshiriqlarning kasbiy yo'naltirilganligi, autentiklik darajasi, kommunikativ qiymati, talabalarning mustaqil fikrlashini rag'batlantirish imkoniyati, klinik terminologiyani qo'llashga xizmat qilishi hamda jamoaviy hamkorlikni rivojlantirishga qo'shadigan hissassi. Ushbu mezonlar asosida ishlab chiqilgan topshiriqlarning ta'lim jarayonidagi samaradorligi nazariy-metodik nuqtai nazardan baholandi.

Shuningdek, tibbiy ingliz tili faniga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalar, xalqaro metodik tavsiyalar, klinik ssenariylar va autentik o'quv materiallari tahlil qilinib, ularda qo'llanilgan topshiriq turlarining didaktik imkoniyatlari o'rganildi. Mazkur tahlillar asosida klinik vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni loyihalashning metodik tamoyillari ishlab chiqildi va ularni tibbiyot oliy ta'lim muassasalari amaliyotida qo'llash bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. O'tkazilgan nazariy-metodik tahlillar shuni ko'rsatdiki, tibbiy ingliz tilini o'qitishda klinik vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni qo'llash ta'lim jarayonining amaliy yo'naltirilganligini sezilarli darajada kuchaytiradi. Mazkur topshiriqlar talabalarning faqat til birliklarini o'zlashtirishiga emas, balki ularni kasbiy faoliyatga xos kommunikativ vaziyatlarda maqsadga muvofiq qo'llashiga ham xizmat qiladi. Natijada tilni o'rganish jarayoni real

klinik faoliyat mazmuni bilan uyg'unlashadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, klinik ssenariylar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda talabalar tibbiy terminologiyadan faolroq foydalanadi, kasbiy muloqotga kirishish, savol berish, bemorning shikoyatlarini aniqlashtirish, tashxis yuzasidan fikr bildirish va tavsiyalar berish kabi nutqiy faoliyatlarni tabiiyroq amalga oshiradi. Bu esa ularning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini izchil rivojlantirishga imkon yaratadi.

Muhokama natijalari shuni ham ko'rsatadiki, klinik topshiriqlarni ishlab chiqishda ularning autentikligi, kasbiy dolzarbligi va talabalarning tayyorgarlik darajasiga mosligi muhim metodik mezon hisoblanadi. Topshiriqlar haddan tashqari murakkab yoki real klinik amaliyotdan uzoq bo'lsa, ular kutilgan pedagogik samarani bermasligi mumkin. Shu sababli topshiriqlar bosqichma-bosqich murakkablashib boradigan tamoyil asosida tuzilishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, klinik vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarni jamoada ishlashga, o'z fikrini asoslab himoya qilishga, hamkorlikda qaror qabul qilishga va kasbiy etikaga rioya qilgan holda muloqot olib borishga o'rgatadi. Bu kompetensiyalar zamonaviy tibbiyot amaliyotida shifokor faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Tahlil natijalari asosida quyidagi didaktik imkoniyatlar aniqlandi:

- klinik vaziyatlarda tibbiy terminologiyani faol qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- bo'lajak shifokorlarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish;
- nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash malakasini mustahkamlash;
- klinik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- talabalarni mustaqil qaror qabul qilish

va muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga yo'naltirish;

- jamoaviy hamkorlik hamda kasbiy muloqot madaniyatini rivojlantirish.

Umuman olganda, klinik vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar tibbiy ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan zamonaviy didaktik vosita sifatida baholanishi mumkin. Ularning o'quv jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilinishi bo'lajak shifokorlarni xalqaro kasbiy muloqotga tayyorlash, tibbiy axborot bilan ishlash va zamonaviy sog'liqni saqlash tizimida samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni rivojlantirishga imkon beradi. Kasbiy-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish

Klinik topshiriqlar talabalarning shifokor va bemor o'rtasidagi muloqotni tabiiy tarzda tashkil etishiga xizmat qiladi. Bemorning shikoyatini tinglash, aniqlashtiruvchi savollar berish, anamnez yig'ish, tekshiruv natijalarini izohlash hamda davolash bo'yicha tavsiyalar berish jarayonida talabalar ingliz tilidan kasbiy maqsadlarda foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bunday faoliyat kelgusidagi klinik amaliyot uchun zarur bo'lgan kommunikativ kompetensiyaning shakllanishiga zamin yaratadi.

Tibbiy terminologiyani faol qo'llash. An'anaviy mashg'ulotlarda terminlar ko'pincha alohida lug'at birliklari sifatida o'rganiladi. Klinik vaziyatlarda esa terminlar muayyan kasbiy kontekstda qo'llaniladi. Masalan, talabalar "symptoms", "diagnosis", "treatment", "prescription", "physical examination", "medical history" kabi terminlardan bemor bilan muloqot jarayonida foydalanadilar. Bu esa terminlarning mazmunini chuqurroq anglash va ularni faol lug'at tarkibiga kiritishga yordam beradi. [5:11]

Klinik fikrlashni rivojlantirish: Klinik vaziyatlar faqat til o'rganishga emas, balki tahliliy fikrlashni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Talabalar berilgan ma'lumotlarni tahlil

qiladi, ehtimoliy tashxislarni taqqoslaydi, qo'shimcha tekshiruvlarni tanlaydi hamda klinik qaror qabul qilish jarayonida o'z fikrini asoslaydi. Natijada til kompetensiyasi bilan bir qatorda klinik tafakkur ham shakllanadi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari tibbiy ingliz tilini o'qitishda klinik vaziyatlarga asoslangan topshiriqlardan foydalanish bo'lajak shifokorlarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning samarali didaktik vositalaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Mazkur yondashuv xorijiy tilni o'qitish jarayonini

nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklab qolmay, ularni real kasbiy faoliyatga yaqin sharoitlarda qo'llash imkonini yaratadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda klinik vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarning bo'lajak shifokorlarning kasbiy kompetensiyalariga ta'sirini eksperimental tadqiqotlar asosida baholash, shuningdek, raqamli ta'lim platformalari va sun'iy intellekt vositalari bilan integratsiyalashgan metodik modellarni ishlab chiqish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Anthony, L. (2018). *Introducing English for Specific Purposes*. Routledge.
2. Basturkmen, H. (2010). *Developing Courses in English for Specific Purposes*. Palgrave Macmillan.
3. Basturkmen, H. (2021). *ESP Methods and Materials*. The TESOL Encyclopedia of English Language Teaching. Wiley.
4. Boshier, S. (2010). *English for Nursing: Developing Discipline-Specific Materials*. In N. Harwood (Ed.), *English Language Teaching Materials: Theory and Practice*. Cambridge University Press.
5. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). *Developments in English for Specific Purposes: A Multi-disciplinary Approach*. Cambridge University Press.